SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

SAFAROV AKBAR RAXMANOVICH

UMUMLASHGAN TEBRANUVCHAN INTEGRALLAR VA ULARNING TATBIQLARI

01.01.01 –Matematik analiz

FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand - 2023

UDK: 517.518

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Safarov Akbar Raxmanovich
Umumlashgan tebranuvchan integrallar va ularning tatbiqlari 5

Safarov Akbar Rakhmanovich
Generalized oscillatory integrals and their applications 23

Сафаров Акбар Рахманович
Обобщенный осцилляторный интегралы и их приложения 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published works
Список опубликованных работ 47

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

SAFAROV AKBAR RAXMANOVICH

UMUMLASHGAN TEBRANUVCHAN INTEGRALLAR VA ULARNING TATBIQLARI

01.01.01 –Matematik analiz

FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand - 2023

Fan doktori (Doctor of Sciences) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida V2023.2.DSc/FM217 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universiteti va V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ikromov Isroil Akramovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xalmuxamedov Alimdjan Raximovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Imomqulov Sevdiyor Akramovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Mo'minov Zaxriddin Eshqobilovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «13» 08 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231-06-32, faks: (+99866) 235-19-38, 239-12-47, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (97 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 231-06-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «1» 08 kuni tarqatildi.
(2023-yil «1» 08 dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.S. Soleyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.M. Xalxo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori

S.N. Lakayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda tebranuvchan integrallarning tekis bahosini tadqiq qilishga olib kelinadi. Bu albatta, ushbu mavzu bo‘yicha mavjud bo‘lgan keng qamrovli adabiyotlarda o‘z aksini topgan. XX asrning oltmishinchi yillarida kiritilgan trigonometrik yig‘indilar usuli hamda bu yig‘indilarning asimptotik xarakterini trigonometrik integrallar orqali ifodalanishi tebranuvchan integrallar nazariyasining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Tebranuvchan integrallarning yana bir muhim jihatlaridan biri ularning analitik sonlar nazariyasiga tatbig‘i hisoblanadi. Bunday integrallarning xarakterini tadqiq etishning ikki jihati mavjud bo‘lib, ulardan biri trigonometrik yig‘indilar bilan, boshqasi trigonometrik integrallar bilan bog‘liq. Tebranuvchan integrallarning xarakterini tadqiq qilishga oid tadqiqotlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda fundamental fanlarning amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematik analizning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, tebranuvchan integrallarning xarakterini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Yevklid fazosining qavariq gipersirtlarida mujassamlangan silliq Borel o‘lchovlarining Furye almashtirishlarini tadqiq qilish hamda gipersirtlarda Furye almashtirishlarining chegaralanganlik muammosi bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Algebra va matematik analiz, dinamik tizimlar nazariyasi, amaliy matematika va matematik moddellashtirish matematika fanlarining ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilanishi amaliy-nazariy jihatdan muhim ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Respublikamizda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental fanlarga katta e’tibor berilmoqda, xususan, garmonik analiz nazariyasi masalalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi[1]” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi. Bu qaror ijrosini ta’minlashda garmonik analiz masalalarining spektral nazariyasini rivojlantirish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori

va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasining IV, “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Umumlashgan tebranuvchan integrallar va ularning tatbiqlariga oid tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar yetakchi xorijiy davlatlarning oliy ta’lim muassalari va ilmiy-tadqiqot markazlari, jumladan, Ghent Analysis & PDE Center (Belgiya), School of Mathematical Sciences, Queen Mary University of London (Angliya), Christian-Albrechts-Universität zu Kiel (Germaniya), Ganja State University (Ozarbayjon), Moskva davlat universiteti (Rossiya) da keng qamrovli izlinishlar olib borilmoqda.

Umumlashgan tebranuvchan integrallar va ularning tatbiqlariga oid dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator dolzarb masalalar yechilgan, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: bir o‘zgaruvchili umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholari olingan (Ghent Analysis & PDE Center (Belgiya), School of Mathematical Sciences, Queen Mary University of London (Angliya)); tebranuvchan integrallarning invariant baholari topilgan (Moskva davlat universiteti (Rossiya)); Fazasi ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallar uchun jamlash ko‘rsatkichlari xususiy holda topilgan Ganja State University (Ozarbayjon)).

Dunyo miqyosida bugungi kunda umumlashgan tebranuvchan integrallar va ularning tatbiqlarini tadqiq etish bo‘yicha bir qator, jumladan: fazasi ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallarning invariant baholarini olish, fazasi maxsus ko‘rinishli ko‘p karrali tebranuvchan integrallarning tekis baholarini olish, fazasi ikki o‘zgaruvchili uchinchi darajali bir jinsli ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallarning yig‘ish ko‘rsatkichini topish, Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan tebranuvchan integrallarning baholarini olish, Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan tebranuvchan integrallarning asimptotikasini topish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tebranuvchan (trigonometrik) integrallar dastlab 1818 yil Frenelning yorug‘likning intensivligini o‘rganish bilan bog‘liq ishlarida vujudga kelgan. U bunday integrallardan foydalanib chetlardagi, ekrandagi, kichik tuynuk difraksiyalari masalalarini yechgan. 1838-yilda Eyri trigonometrik integrallardan kaustikaning atrofida yorug‘likning intensivligini o‘rganishda foydalandi. Kaustika – bu yorug‘likning intensivligi boshqa odatdagi nuqtalardagidan ancha yuqori bo‘lgan to‘plamidir. Keyinchalik, 1887-yilda Kelvin va Rimanning tadqiqotlarida tebranuvchan integrallarning xarakterini o‘rganish uchun stasionar faza usuli qo‘llanila boshlandi. 1891-1892-yillarda Puankare

[2] Dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: https://www.springer/com/gp/mathematics; https://onlinelibrary.wiley.com/; www.mathnet.ru; www.scholar.google.com; www.elsevier.com/locate/camw va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

izlanishlarida yorug‘likning intensivligini o‘rganishda tebranuvchan integrallardan keng foydalandi. Xususan, u yorug‘lik kaustikadan o‘tayotganda fazali siljishni $\frac{\pi}{2}$ ga surishini isbotladi. Oldinroq bu tasdiq Gui tomonidan tajribaviy usul bilan aniqlangan.

Keyingi tadqiqotlarda Pirsi, Lyudvig, Ursella, Konnor va boshqa olimlarning A_n maxsuslikka ega bo‘lgan tebranuvchan integrallarning matematik fizikada tadbiqlari paydo bo‘ldi. 1974-yilda J.Dyustermatning ishida umumlashgan Eyri funksiyalari, aniqrog‘i Arnoldning elliptik maxsusliklari bilan bog‘liq funksiyalar tadqiq qilindi. 1973-yilda V.I.Arnold tomonidan quyidagi gipoteza ilgari surildi. Faraz qilaylik, tebranuvchan integralning faza funksiyasi biror parametrlarga bog‘liq bo‘lsin. Albatta, faza funksiyasi parametrlar va “asosiy” o‘zgaruvchilar(integral o‘zgaruvchilari)ning silliq (hatto analitik) funksiyasi bo‘lishi mumkin. Ya’ni, biz faza funksiyalari oilasiga ega bo‘laylik. Aytaylik, bu parametrlar tayinlangan qiymatlarda nol nuqtaning biror atrofida o‘zgarsin. Shuning uchun ularni ba’zan “kichik” parametrlar deb atashadi. Bizga tebranuvchan integralning (ya’ni faza funksiyasi parametrning nol nuqtasida bo‘lgan holdagi qiymati bilan aniqlangan) tebranish ko‘rsatkichi ma’lum bo‘lsin. U holda parametrlar nol nuqtaning yetarli kichik atrofida o‘zgarganda parametrlarga bog‘liq tebranuvchan integral shu tebranish ko‘rsatkichidan ixtiyoriy kichikroq bo‘lgan katta parametrning darajasi orqali baholanadi. Boshqacha aytganda, tebranish ko‘rsatkichi fazaning kichik parametrlarining yarim uzluksiz funksiyasi bo‘ladi. Bu masala “Arnold’s Problems” nomli kitobda ham keltirilgan (bu kitobning to‘ldirilgan inglizcha nashri 2004-yilda chop qilingan).

Arnoldning gipotezasi V.N.Karpushkin tomonidan isbotlandi. Aniqrog‘i, faza funksiyasi analitik bo‘lgan holda ikki karrali tebranuvchan integrallarning tekis (faza funksiyasining yetarli kichik «siljishiga» nisbatan) baholari olindi. Boshqacha aytganda, V.N.Karpushkin V.I.Arnoldning gipotezasi analitik fazali tebranuvchan integrallar uchun o‘rinli bo‘lishini isbotladi. Keyinchalik bu natija silliq funksiyalarning ba’zi xususiy deformasiyalari uchun Xasanovning nomzodlik dissertatsiyasida isbotlandi.

Tebranuvchan integrallarni o‘rganish uchun yana bir muhim sohalardan biri analitik sonlar nazariyasiga tadbig‘i hisoblanadi. Ma’lumki, I.M.Vinogradovning tadqiqotlarida diofant tenglamalari yechimining soni bilan mos keluvchi integral (Vinogradov integrali deb ataluvchi) muhim o‘rin egallaydi. Biroq bunday integrallarning xarakterini tadqiq etishning ikki jihati mavjud bo‘lib, ulardan biri trigonometrik yig‘indilar bilan, boshqasi trigonometrik integrallar bilan bog‘liq. 1949-yilda xitoy matematigi Xua Lo Gen tomonidan trigonometrik integralning mos $L^p(R^n)$ fazoga tegishli bo‘lgan eng minimal p ni topish muammosini qo‘ydi, bunda n – fazadagi ko‘phad koeffisiyentlari fazosining o‘lchovi. Ushbu masala bir qator ishlarda qaralgan bo‘lib, Vinogradov tomonidan olingan baholar umumlashgan Van der Korput lemmasiga asoslangan. Mazkur masala bir karrali tebranuvchan integrallar uchun Arxipov G.I., V.N.Chubarikov, A.A.Karasubalarning 1979-yildagi ishida o‘z yechimini topgan va ular tomonidan ko‘p karrali trigonometrik integrallar uchun yuqori baho topilgan. Biroq bu masala umumiy holda haligacha ochiq turibdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand Davlat universitetining OT-F4-69 - «Garmonik analiz, darajali geometriya va ularning matematik fizika masalalariga tatbiqlari» ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholarini olish va hamda aniq jamlash ko'rsatkichini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

amplituda funksiyasi uzilishga ega bo'lgan tebranuvchan integrallarning tekis baholarini ε aniqligida o'tish metodini qo'llash orqali olish;

faza funksiyasi D_∞, $D_4^\pm$ va A_r maxsusliklarga ega bo'lgan Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog'langan umumlashgan tebranuvchan integrallarni baholash;

faza funksiyasi ko'phad bo'lgan ikki o'zgaruvchili Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog'langan umumlashgan va klassik tebranuvchan integrallarning tekis baholarini olish;

fazasi uchinchi darajali ko'phad bo'lgan tebranuvchan integrallar uchun Yevklid tekisligidagi klassik harakatlar gruppasining invariantlari orqali baholarini olish;

faza funksiyasi ikkinchi va uchinchi darajali ko'phad bo'lgan klassik tebranuvchan integrallarning koeffisiyentlar fazosidagi aniq jamlash ko'rsatkichini topish.

Tadqiqotning ob'yekti fazasi ko'phad bo'lgan umumlashgan tebranuvchan integrallardan iborat.

Tadqiqotning predmeti faza funksiyasining koeffisiyentlari cheksizga intilgandagi tebranuvchan integrallarning holatini aniqlash, tebranuvchan integrallarning invariant klassik gruppalar orqali bahosini olishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida differensial akslantirishlarning maxsusliklar nazariyasi, analitik funksiyalar nazariyasi, analizning asimptotik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

amplituda funksiyasi uzilishga ega bo'lgan tebranuvchan integrallarning tekis baholarini ε aniqligida o'tish metodini qo'llash orqali olingan;

faza funksiyasi D_∞, $D_4^\pm$ va A_r maxsusliklarga ega bo'lgan Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog'langan umumlashgan tebranuvchan integrallar baholangan;

faza funksiyasi ko'phad bo'lgan ikki o'zgaruvchili Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog'langan umumlashgan va klassik tebranuvchan integrallarning tekis baholari olingan;

fazasi uchinchi darajali ko'phad bo'lgan tebranuvchan integrallar uchun Yevklid tekisligidagi klassik harakatlar gruppasining invariantlari orqali baholari olingan;

faza funksiyasi ikkinchi va uchinchi darajali ko'phad bo'lgan klassik tebranuvchan integrallarning koeffisiyentlar fazosidagi aniq jamlash ko'rsatkichi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fazasi ikki o‘zgaruvchili uchinchi darajali ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallarning aniq yig‘ilish ko‘rsatkichini topishga imkon beradi;

fazasi ikki va undan ko‘p o‘zgaruvchili ko‘phad bo‘lgan umumlashgan tebranuvchan integrallar uchun Van der Korput lemmasining isbotini olishda foydalanish mumkin;

umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholari kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarning yechimini baholashda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik analiz, funksional analiz, matematik fizika, differensial tenglamalar, garmonik analiz nazariyasi usullaridan foydalanganligi hamda qat’iy matematik mulohazalarni qo‘llash orqali, matematik isbotlashlar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fazasi uchinchi darajali ko‘phad bo‘lgan umumlashgan tebranuvchan integrallar invariant baholarining mavjudligini ko‘rsatilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, giperbolik tenglamalarning fundamental yechimlarining xarakterini tadqiq qilishda asos sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholari va ularning tatbiqlariga oid natijalar asosida:

fazasi ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallarning invariant baholariga oid ilmiy natijalardan yetakchi xorijiy jurnallarda (Nonlinear Analysis, Volume 207, June 2021, 112292, Analysis and Mathematical Physics volume 12, Article number: 130 (2022), Journal of Siberian Federal university. mathematics and physics 15.4 (2022): 459-466.) ba’zi nochiziqli differensial tenglamalarga mos masalalarni tadqiq qilishda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi qaralayotgan masalalarning spektrlari diskret bo‘lishini isbotlash imkonini bergan;

umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholaridan Belgiya respublikasi Gent universitetining maxsus tadqiqot fondining Analiz va xususiy differensial tenglamalar hamda Medusalam programmasining № 01M01021 sonli tadqiqot loyihasida (Gent universitetining 2023-yil 18-apreldagi ma’lumotnomasi) Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan umumlashgan tebranuvchan integrallarning xususiy hosilali differensial tenglamalarning yechimini baholashda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi kasr hosilali differensial tenglamalarning yechimining aprior baholarini olish imkonini bergan;

fazasi ko‘phad bo‘lgan tebranuvchan integrallarning bahosiga oid natijalar Qozog‘iston respublikasi Matematika instituti va matematik modellashtirish ilmiy-tadqiqot institutining №AR08052046 sonli “Ba’zi lokal bo‘lmagan nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar” mavzusidagi loyihada (Qozog‘iston respublikasi Matematika instituti va matematik modellashtirish ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 17 apreldagi 01-06/060 son ma’lumotnomasi) Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholarini tadqiq qilishda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi kasr hosilali differensial tenglamalar uchun Koshi masalasi yechimining dastlabki baholarini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 14 ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda, shulardan 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasilari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 6 tasi xorijiy va 8 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 167 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Yordamchi mulohazalar”** deb nomlangan birinchi bobida biz kerakli ta’riflar, belgilar va dissertatsiya davomida foydalaniladigan ba’zi natijalarni belgilab beramiz. Shuningdek, ba’zi dastlabki tushunchalar haqidagi ma’lumotlarni ham taqdim etamiz. Xususan, koordinatalarni chiziqli almashtirish orqali oddiy maxsusliklarga ega bo‘lgan funksiyalarning normal shakliga keltiramiz. Bundan tashqari, fazasi analitik funksiya va amplitudasi uzilish nuqtalari to‘plamiga ega bo‘lgan tebranish integrallarini ko‘rib chiqamiz. Bunda musbat $\varepsilon > 0$ aniqligida bunday integrallar uchun aniq baholarni olamiz.

Ikki o‘lchovli holni qaraylik, ya’ni $n = 2$. Silliq amplitudali kompakt tashuvchiga ega bo‘lgan tebranuvchan integralni qaraylik:

$$J_0(\lambda, s) = \int_{R^2} a(x, s) e^{i\lambda\Phi(x,s)} dx.$$

Asosiy shart:

Faraz qilaylik, $s \in K$ va (η_1, η_2) uchun quyidagi yangi faza funksiyani qarab chiqaylik

$$\Phi_1(x, s, \eta) = \Phi(x, s) + x_1\eta_1 + x_2\eta_2.$$

Faraz qilaylik, $\Phi(x, s)$ analitik funksiya bo‘lib, $\Phi_1(x, s^0, \eta^0)$ funksiyaning ixtiyoriy kritik nuqtasi uchun bunda $(s^0, \eta^0) \in K \times R^2$ va uning tebranish ko‘rsatkichi $\beta \le \beta_0$ bo‘lsin. Quyidagi tasdiq o‘rinli.

1-Teorema. *Agar faza funksiya uchun asosiy shart o‘rinli bo‘lsa, u holda ixtiyoriy* $\varepsilon > 0$ *uchun quyidagi baho o‘rinli*

$$\left|J(\lambda, s)\right| \le \frac{c_\varepsilon \left\|a(\bullet, s)\right\|_{C^3}}{\lambda^{\beta_0 - \varepsilon}}.$$

Quyidagi tebranuvchan integralni qaraylik

$$J(\lambda, s) = \int_{R^2} \chi_{D(s)}(x) a(x,s) e^{i\lambda\Phi(x,s)} dx, \qquad (1)$$

bunda $D(s)-$ R^2 dagi sohalar oilasi va $\{F_1(x,s) > 0,\ F_2(x,s) > 0\} \subset D(s)$, bundan tashqari $\gamma_1, \gamma_2 \subset \partial D(0)$ bo‘lsin, bunda $\gamma_j = \{x : F_j(x,0) = 0\},\ j = 1,2.$

Quyidagi teorema o‘rinli.

2-Teorema. *$\Phi(x,0)$ funksiyaning $x = 0$ kritik nuqtadagi tebranish ko‘rsatkichi β bo‘lsin, u holda nol nuqtaning shunday $U \times V \subset R^2 \times R^m$ atrofi mavjud bo‘lib, ixtiyoriy tayinlangan musbat $\varepsilon > 0$ va ixtiyoriy $a \in C_0^\infty(U \times V)$ amplituda funksiya uchun, quyidagi baho o‘rinli:*

$$\left|J(\lambda, s)\right| \le \frac{A_\varepsilon \left\|a\right\|_{C^3}}{\lambda^{\beta-\varepsilon}}.$$

“Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan tebranuvchan integrallar” deb nomlanuvchi dissertatsiyaning ikkinchi bobida, fazasi f va amplitudasi ψ bo‘lgan quyidagi shakldagi integralni qaraymiz:

$$I_{\alpha,\beta} = \int_U E_{\alpha,\beta}(i\lambda f(x))\psi(x)dx\ , \qquad (2)$$

bunda $0 < \alpha < 1,\ \beta > 0$, U koordinalar boshining yetarlicha kichik atrofi va $\lambda > 0$.

“Silliq fazali sodda maxsuslikga ega bo‘lgan Mittag-Leffler funksiyalarning baholari” nomli paragrafda faza funksiyasi silliq bo‘lib, D_∞, $D_4^\pm$ va A_r maxsusliklarga ega bo‘lgan Mittag-Leffler funksiyalarning baholarini qaraymiz. Tebranuvchan integrallarning eksponensial funksiyalari o‘rniga Mittag-Leffler funksiyasini qo‘yish orqali umumlashtiramiz.

Bir jinsli uchinchi darajali ikki o‘zgaruvchili ko‘phadni qaraylik. Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagidan iborat.

3-Teorema. *Faraz qilaylik $-\infty < a < b < \infty$ va faza funksiya ikki o‘zgaruvchili bir jinsli ko‘phad bo‘lib hamda $\psi \in L^p[a,b]^2$, $1 < p \le \infty$ bo‘lsin. Agar $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$ va $\lambda > 0$ bo‘lsa, u holda quyidagi baho o‘rinli*

$$\left|\int_{[a,b]^2} E_{\alpha,\beta}(i\lambda x_1^2 x_2)\psi(x)dx\right| \le \frac{C|\psi|_{L^p}}{\lambda^{\frac{1}{2}-\frac{1}{2p}}}, \qquad (3)$$

$$\left|\int_{[a,b]^2} E_{\alpha,\beta}(i\lambda(x_1^2 x_2 \pm x_2^3))\psi(x)dx\right| \le \frac{C|\psi|_{L^p}}{\lambda^{\frac{2}{3}-\frac{1}{3p}}}, \qquad (4)$$

$$\left|\int_{[a,b]^2} E_{\alpha,\beta}(i\lambda x_1^3)\psi(x)dx\right| \le \frac{C|\psi|_{L^p}}{\lambda^{\frac{1}{3}-\frac{1}{3p}}}, \qquad (5)$$

bunda C konstanta faqatgina p ga bog‘liq.

“Fazasi ko‘phad bo‘lgan umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholari” nomli paragrafda, fazasi bir jinsli ko‘phad bo‘lgan Mittag-Leffler funksiyasi bilan bog‘langan umumlashgan tebranuvchan integrallarning tekis baholarini qaraymiz.

Richchi-Steyn lemmaning analogini va quyidagi integralning invariant bahosini olamiz.

Quyidagi integralni qaraylik

$$I_{\alpha,\beta}(a) = \int_{Q^n} E_{\alpha,\beta}(iP(a,x))\psi(x)dx, \qquad (6)$$

bunda $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$, $P(a,x)$ faza funksiya, $\psi \in C^\infty(R^n)$ amplituda va $Q^n := [0,1]^n$ n o‘lchovli kubdan iborat.

4-Teorema. *Faraz qilaylik* $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$ *bo‘lsin. Shunday musbat* C_d *topilib, fazasi* $P(a,x)$ *bo‘lgan (6) integral uchun quyidagi baho o‘rinli*

$$\left|I_{\alpha,\beta}\right| \le \frac{C_d}{\|a\|^{\frac{1}{d}}}, \tag{7}$$

bunda $\|a\| = \sum_{|\lambda| \le d} |a_\lambda|$.

1-Eslatma. *4-teorema Richchi-Steyn lemmasining analogidir.*

1-Tasdiq. Faraz qilaylik $P: R^n \to R$ *darajasi* $\le d$ *bo‘lgan ko‘phad va* $|a| = \max\{|a_\lambda|, |\lambda| \le d\}$ *bo‘lsin. Shunday musbat* $C_{d,n}$ *o‘zgarmas topilib, agar* $a^0 \in S^N$ *(bu yerda* $N+2$ *eng yuqori darajasi* d *bo‘lgan ko‘phadlar fazosidagi o‘lchovi) tayinlangan nuqta va* $|D^\alpha P(a^0,x)| \ge \delta > 0$, $\forall x \in [0,1]^n$ *(bunda* $\alpha \in Z_+^n$ *hamda* $|\alpha| \ge 2$*), bo‘lsa u holda quyidagi baho o‘rinli*

$$\left|I_{\alpha,\beta}(\mu a^0)\right| \le \frac{C_{d,n}}{|\mu|^{\frac{1}{|\alpha|}}},$$

bu yerda $S^N = \{|a| = 1\}$ *birlik sfera va* $\mu > 0$.

“Fazasi bir jinsli ko‘phad bo‘lgan umumlashgan tebranuvchan integrallarning invariant baholari” nomli paragrafda, biz fazasi quyidagi ko‘rinishdagi umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholarini qaraymiz

$$P_3(a,x,y) = a_0x^3 + 3a_1x^2y + 3a_2xy^2 + a_3y^3, \tag{8}$$

bu yerda $a := (a_0, a_1, a_2, a_3) \in R^4$ koeffisiyentlar. Quyidagi integralni qaraylik

$$I_{\alpha,\beta}(a) = \int_{R^2} E_{\alpha,\beta}(iP_3(a,x,y))\psi(x,y)dxdy, \tag{9}$$

bunda ψ kompakt tashuvchili silliq funksiya.

Biz (9) integralni koeffisiyentlari cheksizga intilgandagi xarakterini o‘rganamiz. Evklid tekisligining harakatlar guruhining invariantlari bo‘yicha (9) integral uchun baholarini olamiz. Bu ko‘phadning diskriminanti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D = 3a_1^2a_2^2 + 6a_0a_1a_2a_3 - 4a_0a_2^3 - 4a_1^3a_3 - a_0^2a_3^2.$$

Bu $SL(2,\mathbb{C})$ guruhda invariant.

5-Teorema. *(8) fazali (9) integral uchun quyidagi baho o‘rinli*

$$\left|I_{\alpha,\beta}(a)\right| \le \frac{c\|\psi\|_{L^\infty}}{|D|^{\frac{1}{6}}}.$$

Bunda c *o‘zgarmas* a *ga bog‘liq va* $D \ne 0$ $P_3(a,x,y)$ *ko‘phadning diskriminanti.*

Endi bir o‘lchovli integralni qaraymiz. Quyidagi baho yordamchi natija bo‘lib, keyingi paragrafda invariant bahoni olish uchun muhim hisoblanadi.

$0 < \delta < 1$ bo‘lsin. Quyidagi integralni qaraymiz

$$J_{\alpha,\beta}(p,q) = \int_R E_{\alpha,\beta}(i(x^3 + px + q))\,dx, \tag{10}$$

bunda $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$.

6-Teorema. *1) Faraz qilaylik* $\frac{1}{3} < \delta < \frac{1}{2}$. *bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $(p,q) \neq (0,0)$ *uchun*

$$\left|J_{\alpha,\beta}(p,q)\right| \leq \frac{c_\delta}{\left(\frac{|p|^3}{27}+\frac{q^2}{4}\right)^{\frac{3\delta-1}{6}}}. \tag{11}$$

2) Faraz qilaylik $\frac{1}{2} < \delta < 1$. *U holda*

$$\left|J_{\alpha,\beta}(p,q)\right| \leq \frac{c_\delta}{|D|^{\delta-\frac{1}{2}}\left(\frac{|p|^3}{27}+\frac{q^2}{4}\right)^{\frac{2-3\delta}{6}}}, \tag{12}$$

bunda $D = \frac{p^3}{27} + \frac{q^2}{4} \neq 0$ $x^3 + px + q$ *ko'phadning diskriminanti va* $c_\delta > 0$ *faqatgina* δ *ga bog'liq bo'lgan musbat son.*

"Ikki o'zgaruvchili Mittag-Leffler funksiyasining baholari" paragrafida biz fazasi ikki o'zgaruvchili silliq funksiya bo'lgan umumlashgan tebranuvchan integrallarning baholarini qaraymiz. Fazasi eksponensial funksiya o'rniga ikki o'zgaruvchili Mittag-Leffler bo'lgan funksiyani qo'yib umumlashtiramiz.

Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagi hisoblanadi.

7-Teorema. *Faraz qilaylik* f *koordinatalar boshining yetarlicha kichik atrofida aniqlangan ikki o'zgaruvchili silliq funksiya va* $\psi \in C_0^\infty(U)$ *bo'lsin.*

Agar $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$, $h > 1$ *va* $\lambda > 2$ *bo'lsa, u holda quyidagi baho o'rinli*

$$\left|\int_U E_{\alpha,\beta}\left(i\lambda f(x_1,x_2)\right)\psi(x)dx\right| \leq \frac{C|\ln\lambda|^m\|\psi\|_{L^\infty(\overline{U})}}{\lambda^{\frac{1}{h}}}, \tag{13}$$

bunda h *funksiyaning balandligi va* $m = 0,1$ *Nyuton ko'pyoqligining karraligi.*

Agar $0 < \alpha < 1$, $\beta > 0$, $h = 1$ *va* $\lambda > 2$ *bo'lsa, u holda quyidagi baho o'rinli*

$$\left|\int_U E_{\alpha,\beta}(i\lambda(x_1^2+x_2^2))\psi(x)dx\right| \leq \frac{C|\ln\lambda|\|\psi\|_{L^\infty(\overline{U})}}{\lambda} \tag{14}$$

va

$$\left|\int_U E_{\alpha,\beta}(i\lambda(x_1^2-x_2^2))\psi(x)dx\right| \leq \frac{C|\ln\lambda|^2\|\psi\|_{L^\infty(\overline{U})}}{\lambda}, \tag{15}$$

bunda C *faza va amplitudaga bog'liq bo'lmagan konstanta.*

2-Tasdiq. *Faraz qilaylik* $f:\Omega\to\mathbb{R}$ *o'lchovli funksiya bo'lib, barcha noldan farqli haqiqiy* $\lambda > 2$ *lar va barcha musbat* $\delta \neq 1$ *uchun, quyidagi o'rinli bo'lsa*

$$\left|\int_\Omega e^{i\lambda f(x)}dx\right| \leq C\,|\lambda|^{-\delta}|\ln\lambda|^m, \tag{16}$$

bunda $m \geq 0$. *U holda ushbu baho o'rinli*

$$\left|x\in\Omega: |f(x)| \leq \varepsilon\right| \leq C_\delta\varepsilon^\delta\left|\ln\varepsilon\right|^m, \quad \delta < 1 \text{ uchun}$$

$$va\ \ \delta > 1, \text{учун } |x\in\Omega: |f(x)| \leq \varepsilon| \leq C_\delta\varepsilon|,$$

bu yerda C_δ *faqatgina* δ *ga bog'liq.*

1-Natija. *Faraz qilaylik* $a(x) = \begin{cases} 1, & \text{when } |x| \le \sigma, \\ 0, & \text{when } |x| \ge 2\sigma \end{cases}$ *va* $a(x) \ge 0$ *hamda* $a \in C_0^\infty(R^2)$ *bo'lsin. U holda barcha noldan farqli* $\lambda > 2$ *va musbat* h *uchun, quyidagi baho o'rinli*

$$\left| \int_{R^2} e^{i\lambda f(x)} a(x) dx \right| \le C |\lambda|^{-\frac{1}{h}} |\ln \lambda|^m, \tag{17}$$

bunda $m \ge 0$, f *koordinatalar boshidagi silliq finit funksiya,* h *esa* f *funksiyaning balandligi va* m *Nyuton ko'pyoqligining karraligi.*

2-Natija. Faraz qilaylik $f(x_1, x_2)$ *silliq funksiya va* $\overline{\Omega}$ *koordinatalar boshining yetarlicha kichik atrofidagi kompakt to'plami bo'lsa u holda noldan farqli ixtiyoriy haqiqiy* $\varepsilon > 2$ *son uchun quyidagi baho o'rinli*

$$|x \in \Omega : |f(x)| \le \varepsilon| \le C\varepsilon^{\frac{1}{h}} |\ln \varepsilon|^m,$$

bunda h f *funksiyaning balandligi va* m *karraligi.*

2-Tasdiq. *Ixtiyoriy silliq, kompakt tashuvchiga ega* $a(x, y)$ *va* $h > 1$ *uchun quyidagi tengsizlik o'rinli*

$$\int_{\{|f(x,y)| \ge \frac{M}{\lambda}\}} \frac{a(x,y)}{1 + \lambda |f(x,y)|} dxdy \le \frac{C |\ln \lambda|}{\lambda^{\frac{1}{h}}}. \tag{18}$$

bu yerda $f(x, y)$ *silliq funksiya.*

3-Eslatma. *Agar* $h = 1$ *va* $f(x, y)$ *silliq funksiya uchun* $\nabla f(0,0) = 0$ *bo'lib. Mors lemmasini qo'llab* $f : x^2 \pm y^2$ *ga ega bo'lamiz. U holda biz quyidagi ikkita to'plamlarni baholaymiz* $\Delta = \Delta_1 + \Delta_2$, *bunda* $\Delta_1 := \{(x, y) : |x^2 \pm y^2| \le M\lambda, |x| \le 1, |y| \le 1\}$ *va* $\Delta_2 := \{(x, y) : |x^2 \pm y^2| > M\lambda, |x| \le 1, |y| \le 1\}$.

"Fazasi ko'phad bo'lgan tebranuvchan integrallarning baholari" nomli bobda fazasi ko'phad bo'lgan tebranuvchan integrallar haqidagi jamlash masalasi qaraladi.

Faraz qilaylik $P(x, a) \in R[x]$, $x \in R^n$ haqiqiy $a \in R^m$ koeffisiyentli ko'phad bo'lsin. Quyidagi integralni qaraylik

$$J(a) = \int_Q \exp\{2\pi i P(x, a)\} dx,$$

bunda $Q = \{x \in R^n : 0 \le x_l \le 1, l = 1, \dots, n\}$ n - o'lchovli birlik kub. Bu funksiyaning ahamiyati shundaki, u quyidagi shaklning maxsus integrallarida namoyon bo'ladi

$$I_p := \int_{R^m} |J(a)|^p da \tag{19}$$

(19) Terri muammosida, diofant sistemasining bir qator butun sonli yechimlari uchun asimptotik tasvir koeffisiyenti sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun (19) integralning yaqinlashuvchi bo'lishi uchun p parametrning minimal qiymatini topish masalasi muhim.

Muammo: *Aniq qiymatini toping* $\gamma = \inf\{p \ge 1 : J \in L^p(R^m)\}$.

γ songa trigonometrik integrallar uchun jamlash ko'rsatkichi deb ataladi.

Ushbu bobda fazasi ko‘phad bo‘lgan trigonometrik integrallar uchun γ sonni topish masalasini ko‘ramiz. Faraz qilaylik, $P(x,s)\in \mathrm{R}[x]$ $x\in \mathrm{R}^k$ dagi $s\in \mathrm{R}^N$ koeffisiyentli ko‘phad bo‘lsin. Q orqali R^k dagi kompakt to‘plamni belgilaymiz.

“Fazasi to‘la kvadratik ko‘phad bo‘lmagan trigonometrik integrallarning baholari” nomli paragrafda $k=3$ holdagi trigonometrik integrallarning jamlash masalasini qaraymiz va jamlash ko‘rsatkichini $\boldsymbol{Q=[0,1]^3}$ uchun aniq topamiz.

P ko‘phad quyidagi ko‘rinishda bo‘lsin:

$$P(x,A,b)=(Ax,x)+(\beta,x),$$

bu yerda $A=\begin{pmatrix} 0 & \alpha_1 & \alpha_2 \\ \alpha_1 & 0 & \alpha_3 \\ \alpha_2 & \alpha_3 & 0 \end{pmatrix}$ haqiqiy simmetrik matrisa, $\beta:=(\beta_1,\beta_2,\beta_3)$ va $(\cdot,\cdot)$ vektorlarning skalyar ko‘paytmasi. Quyidagi trigonometrik integralni qaraylik

$$T(A,\beta)=\int_{[0,1]^3} exp(\,iP(x,A,\beta))dx. \qquad (20)$$

Quyidagi integralni qaraylik

$$\theta=\int\limits_{\mathrm{R}^6} |T(A,\beta)|^p\, d\beta d\alpha,$$

bunda $d\beta=d\beta_1 d\beta_2 d\beta_3$ va $d\alpha=d\alpha_1 d\alpha_2 d\alpha_3$.

Ushbu tasdiq o‘rinli:

8-Teorema. *θ integral $p>4$ uchun yaqinlashuvchi va $p\le 4$ uchun uzoqlashuvchi. Xususan bunda jamlash ko‘rsatkichi $p_0=4$ ga teng.*

Quyidagi mulohaza bilan tanishaylik:

$$\theta_\infty=\int\limits_{\mathrm{R}^6} |T_\infty(A,\beta)|^p\, d\beta d\alpha.$$

3-Tasdiq. *θ_∞ integral $p>4$ da yaqinlashuvchi va $p\le 4$ da uzoqlashuvchi.*

Faraz qilaylik $Q:=[0,1]^3$ R^3 dagi kub bo‘lsin va

$$h(\beta)=\int_{R^3} e^{|x|^2}\chi_Q(x)e^{-2\pi i(\beta,x)}dx,$$

bunda $\chi_Q(x)$ Q to‘plamning xarakteristik funksiyasi.

4-Tasdiq. *Ixtiyoriy musbat ε son uchun, quyidagi tasdiq o‘rinli* $h\in L_{1+\varepsilon}(\mathrm{R}^3)$

.

“Fazasi kvadratik funksiyadan iborat trigonometrik integrallarning baholari” nomli paragrafda klassik qo‘yilgan masalani fazasi P kvadratik ko‘phad va $Q=[0,1]^k$ birlik kub bo‘lganda qaraymiz.

Faraz qilaylik P ko‘phad quyidagi ko‘rinishda bo‘lsin

$$P(x,A,b)=(Ax,x)+(b,x),$$

bu yerda $A=(a_{lm})_{l,m=1}^k$ simmetrik $k\times k$ o‘lchamli haqiqiy matrisa, $b:=(b_1,b_2,...,b_k)\in \mathrm{R}^k$ va $(\cdot,\cdot)$ vektorlarning skalyar ko‘paytmasi. Quyidagi trigonometrik integralni qaraylik

$$T(A,b) = \int_{R^k} \exp(iP(x,A,b))\,\chi_K(x)dx,$$

bunda K kompakt to‘plam va $\chi_K(x)$ uning xarakteristik funksiyasi.

$$\theta = \int_{R^N} |T(A,b)|^p \, dbda,$$

integralni qaraylik, bunda $db = db_1 db_2 \ldots db_k$ and $da = \prod_{1 \le l \le m \le k} da_{lm}$.

Quyidagi tasdiq o‘rinli:

9-Teorema. Faraz qilaylik K *kompakt to‘plam bo‘lsin, u holda* θ *integral* $p > 2k+2$ *yaqinlashuvchi va agar* K *ichki* x^0 *nuqtaga ega bo‘lib va* x^0 *nuqtadan o‘tuvchi* l *to‘g‘ri chiziq mavjud bo‘lib,* $\{l \cap K\}$ *to‘plam faqatgina chekli nuqtalarni saqlasa, u holda integral* $p \le 2k+2$ *da uzoqlashadi. Shunday qilib, agar* K *kompakt to‘plam bo‘sh bo‘lmagan ichki nuqtadan iborat bo‘lsa, u holda jamlash ko‘rsatkichi* $p_0 = 2k+2$ *ga teng.*

P **ikkinchi darajali bir jinsli ko‘phad bo‘lgan hol**

$P(x,A) = (Ax,x)$ bo‘lsin.

10-Teorema. *Agar* $P(x,A) = (Ax,x)$ *va* Q *ko‘pburchak bo‘lsin, u holda* $p > 2k$ *da* θ *integral yaqinlashuvchi. Agar* $Q = [0,1]^k$, *bo‘lsa, u holda* $p \le 2k$ *da* θ *integral uzoqlashuvchi bo‘ladi.*

Ko‘pburchaklar ma’nosida biz maxsusmas simplekslar birlashmasini tushunamiz.

3-Eslatma. Bu holda biz [Jong-Guk Bak, Sanghyuk Lee, 2004, "Restriction of the Fourier transform to a quadratic surface in R^n". *Mathematische Zeitschrift* No.247, pp.409-422.] ishning natijalarini $\{x_i x_j\}_{i \le j=1}^n$ silliq sirt bo‘lmaganligi tufayli qo‘llay olmaymiz.

4-Eslatma. Q to‘plamga bog‘liq holda, p ko‘rsatkich $2k$ dan kichik bo‘lishi ham mumkin. Masalan, agar $k = 2$ va Q markazi $(1,1)$ nuqtada bo‘lgan yetarlicha kichik aylanadan iborat bo‘lsa, u holda $p > 3$ da θ integral yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\theta_\infty = \int_{R^N} |T_\infty(A,b)|^p \, dbda,$$

bunda

$$N = \frac{k(k+2)}{2}.$$

5-Tasdiq. θ_∞ *integral* $p > 2k+2$ *da yaqinlashuvchi va* $p \le 2k+2$ *da uzoqlashuvchi.*

11-Teorema. *Faraz qilaylik* D *kompakt soha* $\hat{\chi}_D \in L_q(R^2)$ *va* $T(\hat{A}) = \int_D e^{i(Ax,x)}dx$ *bo‘lsin. U holda* $p > 6 - \frac{2}{q}$ *da* $T \in L^p(R^3)$. *Bundan tashqari, agar* $\hat{\chi}_D \in L_{1+0}(R^2)$ *bo‘lsa, u holda* $p > 4$ *da* $T \in L^p(R^3)$ *o‘rinli.*

5-Eslatma. [V.V.Lebedev, 2013, "On the Fourier transform of the characteristic functions of domains with C^1 boundary". *Func. anall. and its appl.* vol. 47, no. 1. pp. 33-46.] ishning natijasidan shunday ko‘pburchakdan farqli shunday D to‘plam mavjudki, ushbu $\hat{\chi}_Q \in L_{1+0}(R^2)$ o‘rinli.

3-Natija. Agar D$\subset R^2$ kompakt to‘plam va $\partial D \subset C^1$ bo‘lsa, u holda $p > 4.5$ uchun ushbu $T \in \mathsf{L}^p(\mathsf{R}^3)$ munosabat o‘rinli.

“Trigonometrik integrallar uchun L^p – chegaralanganlik” nomli paragrafida fazasi uchinchi darajali bir jinsli va chiziqli qismlar yig‘indisidan iborat ko‘phad bo‘lgan trigonometrik integrallar uchun jamlash masalasi qaraladi. Trigonometrik integrallarni baholab, jamlash ko‘rsatkichining aniq qiymati topiladi.

Biz amplituda funksiyasi ψ ham, faza funksiyasi F ham parametrga bog‘liq bo‘lgan holat uchun masalani ko‘rib chiqamiz. Avval oddiy fazali tebranish integrallari uchun jamlash masalasini hal qilamiz. Bundan tashqari, biz qutb tipidagi maxsuslikni o‘z ichiga olgan amplitudali bir o‘lchovli trigonometrik integrallarning xarakterlarini o‘rganamiz. Nihoyat, biz uzluksiz amplitudali va algebraik (lekin ko‘phad bo‘lmagan) fazali funksiyali trigonometrik integrallarning jamlash masalasini ko‘rib chiqamiz. Olingan natijalar ikki o‘lchovli trigonometrik integrallarni jamlash masalasini yechishda qo‘llaniladi.

$F(x,y,a)$ ikki o‘zgaruvchining ko‘phad funksiyasi bo‘lsin:

$$F(x,y,a) := P_3(x,y,a_3) + P_1(x,y,a_1), \tag{21}$$

bunda $P_3(x,y,a_3) = a_{30}x^3 + 3a_{31}x^2y + 3a_{32}xy^2 + a_{33}y^3$, $P_1(x,y,a_1) = a_{10}x + a_{11}y$.

$a_3 := (a_{30}, a_{31}, a_{32}, a_{33})$, $a_1 := (a_{10}, a_{11})$ lar R^4, R^2 dagi mos ravishdagi vektorlar.

Paragrafning asosiy natijalari quyidagi teoremalardir.

12-Teorema. *Faraz qilaylik* $\psi \in C_0^\infty(\mathsf{R}^2)$ *va*

$$J(a,\psi) := \int_{\mathsf{R}^2} e^{iF(x,y,a)}\psi(x,y)dxdy. \tag{22}$$

bo‘lsin. U holda ixtiyoriy $p > 8$ *uchun* $J(\cdot,\psi) \in \mathsf{L}^p(\mathsf{R}^6)$ *o‘rinli. Bundan tashqari, agar* $\psi(\cdot,\cdot)$ *koordinatalar boshining yetarli kichik atrofidagi* $\psi(0,0) \neq 0$ *bo‘lgan silliq funksiya bo‘lsa, u holda* $p \leq 8$ *uchun* $J(\cdot,\psi) \notin \mathsf{L}^p(\mathsf{R}^6)$.

Endi faza funksiyasi (21) va $\psi(x,y)\chi_Q(x,y)$ uzilishga ega amplituda funksiyali quyidagi tebranuvchan integralni ko‘rib chiqamiz

$$J(a,\psi,\chi_Q) := \int_Q e^{iF(x,y,a)}\psi(x,y)dxdy, \tag{23}$$

bu yerda $\psi \in C_0^1(\mathsf{R}^2)$ va $Q := [0,1] \times [0,1]$.

13-Teorema. *Agar* $J(\cdot,\psi,\chi_Q)$ *(23) ko‘rinishdagi integral bo‘lsa, u holda ixtiyoriy* $p > 8$ *uchun* $J(\cdot,\psi,\chi_Q) \in \mathsf{L}^p(\mathsf{R}^6)$. *Bundan tashqari, agar* $\psi(\cdot,\cdot)$ *koordinatalar boshining yetarli kichik atrofidagi* $\psi(0,0) \neq 0$ *bo‘lgan silliq funksiya bo‘lsa, u holda* $p \leq 8$ *uchun* $J(\cdot,\psi,\chi_Q) \notin \mathsf{L}^p(\mathsf{R}^6)$.

4-Natija. $J(a,\chi_Q)=\int_Q e^{iF(x,y,a)}dxdy$ integral uchun $p>8$ da $J(\cdot,\chi_Q)\in L^p(R^6)$ munosabat o‘rinli va agar $p\le 8$ bo‘lsa, u holda $J(\cdot,\chi_Q)\notin L^p(R^6)$. Boshqacha aytganda, jamlash ko‘rsatkichi $\gamma=8$.

Amplitudasi parametrga bog‘liq bir o‘zgaruvchili tebranuvchan integrallarni jamlash

$B\subset \mathsf{R}^3$ markazi koordinatalar boshida bo‘lgan yopiq kub bo‘lib, A_B orqali quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $\phi\in C^\infty(\mathsf{R}^2\times B\times \mathsf{R})$ funksiyalar sinfini belgilaymiz:

• ixtiyoriy $\phi\in \mathsf{A}_B$ uchun, shunday $K_\phi\subset \mathsf{R}^2$ kompakt to‘plam mavjud bo‘lib, ixtiyoriy $(\xi,b)\in B\times R$ uchun $supp\ \phi(\cdot,\xi,b)\subset K_\phi$ bo‘lsin;

• ixtiyoriy $\phi\in \mathsf{A}_B$ va $N\ge 0$ uchun $C=C(N,\phi)>0$ mavjud bo‘lib $(\xi,b)\in B\times R$ uchun

$$\|\varphi(\cdot,\xi,b)\|_{C^N(R^2)}\le C$$

bo‘lsin.

$$R^2\times R^3\times R=\{(a_1,a_2,\eta,b):\eta\in R^3,a_1,a_2,b\in R\},$$

fazodagi R^6 da Lebeg o‘lchoviga nisbatan absolyut uzluksiz bo‘lgan, $\mu=b^3da_1da_2d\eta db$ o‘lchov bilan tanishamiz. μ-o‘lchovli $X\subset R^2\times R^3\times R$ qism to‘plamdagi p-darajasi bilan integrallanuvchi barcha μ-o‘lchovli funksiyalar sinfini $\mathsf{L}^p(X,\mu)$ orqali belgilaymiz.

$\phi\in \mathsf{A}_B$ uchun quyidagi tebranuvchan integralni qaraymiz

$$J^1(a_1,a_2,\eta,b):=\frac{1}{b^{\frac{1}{3}}}\int_R\varphi(y,b^{\frac{2}{3}}|\eta_3y^2+\eta_1|,\eta,b)e^{i(a_2y^3+a_1y)}dy, \qquad (24)$$

